

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ELEKTRON HUKUMATDAN RAQAMLI DAVLATGA O'TISH

Abdusattorov Sarvar

*“INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE”
instituti “Menejment” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tish, elektron hukumat va raqamli davlat o'rtasida qanday farq borligi, shuningdek, mamlakatimizda elektron hukumat va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish, elektron hukumatning asosiy tamoyillari bilan bir qatorda raqamli transformatsiya jarayonida elektron hukumatning ahamiyati va imkoniyatlar haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, Raqamli O'zbekiston, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, elektron hukumatning asosiy tamoyillari, markazlashuv va integratsiya, raqamli identifikatsiya tizimi, raqamli infratuzilma.*

ПЕРЕХОД ОТ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА К ЦИФРОВОМУ ПРАВИТЕЛЬСТВУ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Абдусаттаров Сарвар

*Преподаватель кафедры «Менеджмент» института “INTERNATIONAL
SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE”*

Аннотация: В статье рассматривается переход от электронного правительства к цифровому государству в условиях цифровой трансформации, чем отличается электронное правительство от цифрового государства, а также совершенствование процессов формирования электронного правительства и его составляющих в нашей стране, основные подробно описаны принципы электронного правительства, а также важность электронного правительства в процессе цифровой трансформации и возможные варианты.

Ключевые слова: *цифровые технологии, Цифровой Узбекистан, цифровая трансформация, электронное правительство, базовые принципы электронного правительства, централизация и интеграция, система цифровой идентификации, цифровая инфраструктура.*

TRANSITION FROM ELEKTRONIC GOVERNMENT TO DIGITAL GOVERNMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract: The article discusses the transition from e-government to a digital state in the context of digital transformation, how e-government differs from a digital state, as well as the improvement of the processes of forming e-government and its components in our country, the main principles of e-government are described in detail, as well as the importance of e-government in the process of digital transformation and possible options.

Keywords: *digital technologies, Digital Uzbekistan, digital transformation, elektronik government, basic principles of elektronik government, centralization and integration, digital identification system, digital infrastructure.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda - har bir institut/universitet, maktab, shifoxona, muassasa, korxona, har bir uyda mavjud. Ular robototexnika, sun'iy intellekt sohasida, tibbiyotda, qishloq xo'jaligida, virtual haqiqatni yaratish uchun ishlatiladi. Mutaxassislarning fikricha, raqamli texnologiyalar har kuni jadal rivojlanadi.

Elektron hukumat va raqamli davlat o'rtasida qanday farq borligini yoki bular turli terminologiya, lekin mohiyati bir xil ekanligi bilan ajralib turadi. Birinchi marta elektron hukumat tushunchasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda 2000-yillar boshlarida paydo bo'la boshladi. “Elektron hukumat” loyihasi muvaffaqiyatining asosiy sababi shundaki, davlat organlari ishiga AKTni keng joriy etish davlat xizmatchilarining muntazam ishini sezilarli darajada soddalashtirdi va ularning ish samaradorligini oshirdi, bu esa, o'z navbatida, davlat apparatini saqlash uchun iqtisodiy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi.

Mamlakatimizda elektron hukumat va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish 2002-yildan boshlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida” 3080-sonli Farmoni asos bo'ldi [1]. Shuningdek, 2003-yil so'nggida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi [2] va “Elektron raqamli imzo to'g'risida” qonunlari muhim qadam bo'lib xizmat qildi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyundagi PQ-4699-

sonli qarorida Elektron hukumatni rivojlantirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomining yagona idoralararo elektron tizimini joriy etish, elektron hukumat sohasidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirish bosqichlarini muvofiqlashtirish keltirib o'tilgan [4].

Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 373-sonli qarorida Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat rivojlanish holatini baholashning yagona reyting baholash tizimini joriy etish orqali kelgusida raqamli rivojlanishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish uchun baholash jarayonlarini idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimini joriy etish belgilab berilgan [5].

Mamasoatov D.R. tomonidan raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati haqida batafsil yoritilgan bo'lib, unda iqtisodiyotning rivojlantirish mexanizmlari tadqiq qilingan [6].

Mamasoatov D.R. tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish zaruriyatlari ham shu jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilingan [7].


METODOLOGIYA

Raqamli transformatsiya sharoitida elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tish, ularning samaradorligini o'rganish va elektron hukumatning raqamli transformatsiyasini baholash uchun qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullarining yig'indisidir. Bunday tadqiqotlar, elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tishning turli jihatlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1997-yilda AQSh birinchi bo'lib o'zining "Amerikaga kirish: AKTlari bilan reinjiniring" milliy hisobotida davlat xizmatlarini elektron ko'rinishda taqdim etish niyatini e'lon qildi. 2000-yildan boshlab esa AQShning "FirstGov" portali barcha davlat ma'lumotlarini elektron formatda Internet orqali taqdim qila boshladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida elektron hukumat – bu davlat boshqaruvi va xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvdir. Elektron hukumat fuqarolar, biznes va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirish, oshkoralikni ta'minlash va korrupsiyani kamaytirish maqsadida raqamli yechimlarni joriy etadi. 1-rasmda elektron hukumatni raqamli davlatga aylantirish sohalari keltirilgan.



1-rasm. Elektron hukumatni raqamli davlatga aylantirish sohalari¹

Elektron hukumatning asosiy tamoyillari:

1. Markazlashuv va integratsiya: Davlat xizmatlari yagona platforma orqali taqdim etiladi, bu esa fuqarolar uchun qulaylik yaratadi.
2. Shaffoflik: Ma'lumotlar ochiq va ulardan foydalanish oson bo'lishi kerak.
3. Foydalanuvchiga yo'naltirilganlik: Elektron xizmatlar foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olib ishlab chiqiladi.
4. Samaradorlik: Jarayonlar avtomatlashtiriladi, natijada vaqt va resurslar tejaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida elektron hukumatning ahamiyati:

1. Davlat xizmatlarining qulayligi: Elektron platformalar orqali fuqarolar davlat xizmatlariga 24/7 rejimda murojaat qilishlari mumkin.
2. Iqtisodiy samaradorlik: Qog'oz hujjatlarni qisqartirish va jarayonlarni avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytiradi.
3. Axborot xavfsizligi: Raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni himoyalashga va soxtalashtirish xavfini kamaytirishga yordam beradi.
4. Innovatsion imkoniyatlar: Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalaridan foydalanish davlat boshqaruvida yanada samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Elektron hukumatning tarkibiy qismlari:

¹ Muallif ishlanmasi

1. Elektron xizmatlar portali: Fuqarolar va bizneslar uchun xizmatlar platformasi.

2. Elektron ma'lumotlar bazasi: Yagona davlat ma'lumotlar ombori.

3. Raqamli identifikatsiya tizimi: Fuqarolarni va yuridik shaxslarni identifikatsiya qilish vositalari.

4. Raqamli infratuzilma: Internet tarmog'i, serverlar va boshqa texnologik resurslar.

Raqamli transformatsiya sharoitida elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tish – bu davlat boshqaruvining barcha sohalarini raqamlashtirish orqali yanada samarali va shaffof qilish jarayonidir. Ushbu jarayon elektron hukumatdan faqat xizmat ko'rsatish tizimi sifatida emas, balki barcha sohalarni qamrab oladigan kengroq platformaga o'tishni talab etadi [8].

Raqamli davlatning asosiy xususiyatlari:

- Barcha sohalarda raqamlashtirish: Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarni birlashtirgan tizim;

- Ochiqlik va shaffoflik: Ma'lumotlarning ochiq bo'lishi va fuqarolarga yetkazilishini ta'minlash;

- Innovatsiyalar: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), va IoT (Internet of Things) kabi texnologiyalarni tatbiq etish;

- Integratsiya va hamkorlik: Xususiy sektor, davlat idoralari va fuqarolar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

O'tish jarayonining asosiy bosqichlari

1. Elektron hukumatni mustahkamlash:

- Davlat xizmatlarini onlayn ko'rinishda taklif qilish;

- Elektron identifikatsiya tizimlarini joriy etish.

2. Ma'lumotlarni markazlashtirish:

- Davlat idoralarining axborot bazalarini integratsiya qilish;

- Ochiq ma'lumotlar platformalarini rivojlantirish.

3. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish:

- Internet tarmog'ini kengaytirish va tezkorlashtirish;

- Kibersohadagi xavfsizlikni ta'minlash.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish:

- Sun'iy intellekt, blockchain va boshqa ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

- Elektron tijorat va elektron savdo imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Kadrlar tayyorlash:

- Davlat xizmatchilarini raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash;

- Raqamli madaniyatni rivojlantirish uchun fuqarolarni o'qitish.

O'tish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar:

- Texnologik cheklovlar va infratuzilmaning yetishmasligi;

- Malakali kadrlarning yetishmasligi;
- Fuqarolar va davlat xizmatchilarining raqamli savodxonligini oshirish zarurati;
- Kibertahdidlar va xavfsizlik masalalari.

Natijalar:

- Samaradorlikning oshishi: Davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarining tezlashuvi va xarajatlarning kamayishi;
- Fuqarolar ishonchini oshirish: Shaffof boshqaruv orqali ijtimoiy adolatning ta'minlanishi;
- Iqtisodiy o'sish: Innovatsiyalarni rag'batlantirish va investitsiyalarni jalb qilish.

Elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tish uzoq muddatli strategiyani talab qiladi, ammo u davlat boshqaruvining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida elektron hukumat davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati texnologik infratuzilmaning rivojlanishi, kadrlar malakasining oshirilishi va fuqarolar ehtiyojlarini inobatga oluvchi yondashuvga bog'liq. O'zbekiston so'nggi yillarda elektron hukumatni rivojlantirishda sezilarli qadamlar qo'ymoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), davlat xizmatlari agentligi va boshqa raqamli platformalar bu boradagi muhim natijalardir. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlari fuqarolar va biznes vakillarining davlat organlariga murojaat qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirgan. Quyida bu jarayonning asosiy bosqichlari va muhim jihatlari keltirilgan.

Elektron hukumatdan raqamli davlatga o'tishning zarurati:

1. Global tendensiyalar: Zamonaviy davlat boshqaruvi raqamli texnologiyalarni faol qo'llashni talab qiladi, bu esa samaradorlikni oshiradi.

2. Fuqarolar ehtiyojlari: Fuqarolarning xizmatlarni qulay va tezkor olish istagi kuchaymoqda.

3. Iqtisodiy o'sish: Raqamlashtirish biznes jarayonlarini yengillashtirib, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

4. Shaffoflik va ishonchni oshirish: Ochiq ma'lumotlar almashinuvi korrupsiyani kamaytiradi va fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, barcha aholining raqamli savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi 3080-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560-II-sonli qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktyabrda “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyunda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 373-sonli qarori.
6. Mamasoatov, D.R. (2023, November). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati. Konferensiyalar Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 731-734).
7. Mamasoatov D.R (2023). Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(5), 394-399.
8. Mamasoatov D.R. (2023). The Digital Business on Campus as an Initial Model for Students. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(6), 354-358.